

**YUGNAKIY ASARLARIDA MA'NAVIY MA'RIFIY TARBIYA TIZIMINI
TAHLILY O'RGANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI****Mirzayeva Ismigul Almardon qizi****Murodova Dinora O'ktam qizi**

Termiz davlar pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada Axmad Yugnakiy asarlari tahlili asosida ma'naviy ma'rifiy tarbiyaning shakllanishi, shaxsning har tomonlama barkamol ravnaq topishi, komil imson sifatlarini o'zida mujassam qila olishi jihatlarini o'rganish, oilada farzand tarbiyasi va jamiyatda shaxs sifatida ijtimoiylashishida axloq tushunchasining o'ri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarbiya, jamiyat, shaxs, oila, tarbiya jarayoni, faoliyat, adolat, halollik, ilm olish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы становления духовно-просветительского образования, изучение аспектов всестороннего развития личности, способности воплощать качества совершенной личности, роль понятия нравственности в воспитании детей в семье и социализации их как личностей в обществе на основе анализа произведений Ахмада Югнакия.

Ключевые слова: образование, общество, личность, семья, образовательный процесс, деятельность, справедливость, честность, обучение.

Abstract. This article discusses the formation of spiritual and educational education, the study of aspects of the all-round development of a person, the ability to embody the qualities of a perfect person, the role of the concept of morality in raising children in the family and socializing them as individuals in society, based on the analysis of the works of Akhmad Yugnakiy.

Keywords: education, society, individual, family, educational process, activity, justice, honesty, learning.

KIRISH. Hozirgi kunda sog'lom pedagogik jarayonni tashkil etish eng avvalo oiladagi tarbiyani takomillashtirishni talab qiladi. Bu esa ma'naviy tarbiya asoslarini uyg'unlashtirishni taqazo qiladi. Axmad Yugnakiyning Hibat ul-haqoyiq asari turkiy pandnoma adabiyotining noyob durdonasi bo'lib, komil insonni tarbiyalash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ilm olish saodati haqida yozilgan. Ushbu asar Axmad Yugnakiyning bizgacha yetib kelgan yagona bo'lib, asarning mazmun-mohiyati ayniqsa, undagi tarbiyaviy va axloqiy qarashlar uni badiiy asar sifatida yanada



ahamiyatli, ma'nan va fikran ilm-ma'rifatga asoslaydi[13].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Yugnakiyning asarini bevosita ilmiy jihatdan o'rgangan olimlardan biri Q. Maxmudov hisoblanadi. U o'zining ikki jildli nashrida "Hibat ul-haqoyiq"ni matnshunoslik asosida tahlil qilgan va undagi axloqiy pand-nasihatlarini ijtimoiy hamda falsafiy mazmun bilan izohlab bergan. Shuningdek, Q. Sodiqov ham asarni ilmiy asosda nashr etib, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib bergan. Ushbu ikki tadqiqot Yugnakiyning asarini filologik jihatdan to'liq o'rganish va uni ilmiy adabiyot sifatida qayta baholash imkonini yaratdi.

Adabiyotshunoslikning umumiy yo'nalishida S. Maxmudxo'jayev va M. Mirzaevlar ham Yugnakiyning ijodiga murojaat qilganlar. Maxmudxo'jayev o'z asarida Yugnakiyning hikmatlarini yoshlar tarbiyasida qo'llash mumkinligini qayd etadi, Mirzaev esa "Hibat ul-haqoyiq"ni o'z davrining ijtimoiy-madaniy sharoiti bilan bog'lab, uni adabiyot tarixining muhim bosqichi sifatida talqin qiladi[12].

Metodik jihatdan Sh. Sariyevning qo'llanmasi e'tiborga molik bo'lib, unda Yugnakiyning asari o'quvchilarda axloqiy tarbiya berish va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bu esa Yugnakiyning asari nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida ham metodik vosita sifatida xizmat qilishini anglatadi.

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari turli qirralardan tadqiq qilingan: Bertels va DeWeese tomonidan tasavvufiy va tarixiy kontekstda, Karimov va Komilov tomonidan adabiy hamda ma'naviy-ma'rifiy nuqtai nazardan, Maxmudov va Sodiqov tomonidan filologik asosda, Mirzaev va Maxmudxo'jayev tomonidan adabiyot tarixidagi o'rni jihatidan, Sariyev tomonidan esa metodik qo'llanma sifatida. Ushbu tadqiqotlar Yugnakiyning asarini milliy va jahon miqyosida bebaho ma'naviy meros sifatida baholashga imkon yaratadi[14].

Yugnakiy asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimini tahliliy o'rganishdan oldin tarbiya tushunchasining mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

MUHOKAMA. "Tarbiya" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, o'stirmoq, parvarish qilmoq, yetuklikka yetkazmoq ma'nolarini anglatadi. Pedagogika fanida esa tarbiya — yosh avlodni ongli ravishda ma'lum bir g'oya, qarash, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar asosida shakllantirish, ularda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi[11].

Demak, tarbiya tushunchasining mazmuni va tarbiya jarayoni insonni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishni ko'zda tutadi. Uning mazmuni va turlari quyidagilardan iborat.



Tarbiya turlari

Tarbiya turi	Mazmuni	Asosiy maqsadi
Aqliy tarbiya	Shaxsning bilim, tafakkur, dunyoqarashini shakllantirish	Ilm olishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatish
Axloqiy tarbiya	Odob-axloq, ezgulik, halollik, insonparvarlikni shakllantirish	Insonni komil axloq egasi qilib tarbiyalash
Jismoniy tarbiya	Sog'lom turmush tarzi, jismoniy mashqlar, sport	Jismonan sog'lom, chiniqqan, bardam bo'lish
Estetik tarbiya	Go'zallikni ko'ra bilish, san'at va madaniyatni qadrlash	Go'zallikni his etish va ijodkorlikni rivojlantirish
Mehnat tarbiyasi	Mehnat qilish, kasb-hunar egallash, halol mehnat qadriyatlarini	Mehnatsevarlikni rivojlantirish
Ekologik tarbiya	Tabiatga e'tibor, uni asrash va qadrlash	Ekologik madaniyatni shakllantirish
Vatanparvarlik tarbiyasi	Yurtga sadoqat, milliy g'urur, tarixiy merosni hurmat qilish	Ona-Vatanga muhabbatni kuchaytirish
Huquqiy tarbiya	Huquqiy bilim va ongini shakllantirish	Fuqarolik mas'uliyati va qonunlarga rioya qilish
Oilaviy tarbiya	Oila qadriyatlarini, ota-ona va farzand munosabatlari	Mustahkam oila tamoyillarini shakllantirish
Milliy tarbiya	Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar	Milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish

Yugnakiy asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimini tahliliy o'rganish — bu o'quvchi yoki shaxs turmush tarzida ma'naviyat va tarbiyani shakllantirishdagi o'quv metodlarini, insonning shaxsiyati va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur tahlil qilishni anglatadi. Yugnakiy, asarlarning tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, axloqiy nuqtai nazar va jamiyatga bo'lgan ta'sirini hisobga olgan holda, ularning har birida tarbiya tizimi qanday taqdim etilishini aniqlash maqsadida o'rganish zarur. Bu jarayonda asarni



chuqur tahlil qilish orqali uning mazmunini to'laqonli anglashga imkon yaratiladi. Asarning mohiyatini tushunish orqali esa hayotga tadbiiq etiladigan tarbiyaviy faoliyatni belgilab olish mumkin bo'ladi[15].

Ahmad Yugnakiyning tarbiya haqidagi qarashlari uning "Hibbatul-haqoyiq" asarida o'z ifodasini topgan. U bevosita "tarbiya" so'zini ko'p ishlatmagan bo'lsa-da, asarning mazmuni, pand-nasihatlari, axloqiy-odobiy g'oyalari orqali, ma'naviy jihatdan yondashib tarbiya tushunchasiga o'ziga xos ta'rif beradi[10].

Yugnakiyning tarbiya haqidagi fikrlari:

1. *Ilm orqali tarbiya.* Yugnakiyning ta'kidlashicha, haqiqiy tarbiya ilmsiz bo'lishi mumkin emas. Ilm odamni jaholatdan qutqaradi, ma'naviy barkamollikka yetaklaydi. "Ilmsiz kishi ko'r, ilmlisi esa nurli" degan g'oya orqali tarbiyaning asosiy mezoni sifatida ilm ko'rsatiladi.

2. *Axloqiy-odobiy tarbiya.* Yaxshi xulq, halollik, diyonat, sabr-toqat, adolat, insof, mehr-shafqat – tarbiyaning asosi sifatida ko'rsatiladi.

Yolg'on, xiyonat, baxillik, hasad, ochko'zlik – insonni tubanlashtiruvchi, tarbiyasizlik alomatlarini sifatida qoralanadi.

3. *Ma'naviy poklanish.* Yugnakiyning nazarida tarbiya – nafs tarbiyasidan boshlanib, haqiqatga intilish bilan uyg'unlashib insonning eng oliy tarbiyasi sifatida ko'rsatiladi.

4. *Jamiyat oldidagi mas'uliyat.* Tarbiya faqat shaxsiy kamolot emas, balki jamiyat bilan hamnafas bo'lishga undaydi. Komil inson boshqalarga zarar yetkazishdan ko'ra ularga foyda keltirishni o'ylaydi.

5. *Ma'rifat va tarbiya uyg'unligi.* Tarbiya – faqat odob-axloqni o'rgatish emas, balki bilim, ma'naviyat, ruhiy poklikni bir butun holda shakllantirishdir.

Boshqacha qilib aytganda, Ahmad Yugnakiy uchun tarbiya – bu ilm orqali jaholatdan qutulish, axloq orqali jamiyatga foyda keltirish, ma'naviyat orqali o'zini poklash va komillikka yetish, adolat orqali insoniylikni qaror toptirishdir[16].

Demak, Yugnakiyning tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kunda ham qiymatini yo'qotmasdan saqlanib kelmoqda va u milliy pedagogika merosida muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo Uyg'onish davri allomalari qatorida Ahmad Yugnakiy (XII asr) o'zining "Hibat-ul haqoyiq" (Haqiqatlar tuhfasini) asari bilan alohida o'rin tutadi. Uning ijodida inson ma'naviyati, axloqi, ilm-ma'rifatga bo'lgan intilish, halollik, adolat, sabr-toqat kabi fazilatlarini shakllantirish masalalari chuqur yoritilgan. Yugnakiy qarashlari xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy tarbiya an'alarida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya va ma'rifat – insonni komil qilish yo'lida ilmdan, sabr-toqatdan, axloqiy yetuklikdan foydalaniladi[9].

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tushunchasi Yugnakiy asarlarida. Yugnakiy asarlarida



Learning and Sustainable Innovation

ma'naviy-ma'rifiy tarbiya quyidagi asosiy yo'nalishlarda yoritiladi:

- axloqiy tarbiya yalollik, adolat, sabr, toqat, tavoze, vafo kabi fazilatlar targ'ib qilinadi.
- diniy-ma'naviy tarbiya qur'on va hadis asosida imon, ixlos, zohidlik, va taqvo tushunchalari rivojlantiriladi.
- aqliy-ma'rifiy tarbiya ilm olish, ustozga hurmat, tafakkur, hikmatli so'zlar bilan yoshlar ongini yoritish muhim sanaladi.
- ijtimoiy tarbiya insonlarning o'zaro muomalasi, oila, davlat, jamiyatdagi o'rni va burchlari aniq ko'rsatiladi.

Axloq, bilim, adolat, qanoat, sabr, imon, mulohaza kabi tarbiyaviy qadriyatlar turkiy xalqlar dunyoqarashi asosida beriladi.

NATIJALAR. Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi "Hibat-ul haqoyiq" asari pandnoma janrida yozilgan bo'lib, unda quyidagi ma'naviy-ma'rifiy tamoyillar ilgari suriladi:

1. Ilmning ustuvorligi. Ilm – insonni komillikka eltuvchi eng katta boylik sifatida talqin qilinadi.

Ilmsiz kishi "ko'r" deb baholanadi, jaholat esa jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beruvchi illat sifatida ko'rsatiladi.

2. Axloq va odob tarbiyasi. To'g'rilik, halollik, adolat, diyonat, sabr-toqat asosiy insoniy fazilat sifatida ulug'lanadi. Yolg'on, hasad, ochko'zlik, hiyonat kabi illatlar qoralangan.

3. Ma'naviy komillik. Inson o'z nafsini yengmog'i, qalbini pok tutmog'i kerakligi ta'kidlanadi.

Haqiqatga intilish – ma'naviy tarbiyaning eng oliy mezoni sifatida ko'riladi.

4. Jamiyat va shaxs uyg'unligi. Har bir inson jamiyat oldidagi burchini ado etishi, boshqalarga foyda keltirishi zarurligi ta'kidlanadi. Insoniy munosabatlarda mehr-shafqat va insof muhim tarbiyaviy mezon sifatida ilgari suriladi.

Yugnakiy qarashlari asosida quyidagi tahliliy jihatlarni ajratadigan bo'lsak, bilim olish va tarbiya uyg'unligi, ilm-fan faqat amaliy maqsadlar uchun emas, balki insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun ham xizmat qilishi bilan birgalikda, shaxsning komillikka intilishi, o'zini takomillashtirish, jamiyatga foyda keltirishi, ijtimoiy mas'uliyatli va axloqi butun jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatishi kerakligi ta'kidlanadi. Tarbiya jarayonida diniy-axloqiy qadriyatlarning o'rni – Qur'on, hadis va tasavvufiy qarashlarga tayangan holda insoniylik mezonlari belgilab berishga qaratilgan[8].

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ahmad Yugnakiy asarlarida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimi bugungi kunda ham dolzarligini saqlab qolgan bo'lib, ayni qarashlar zamonaviy pedagogika, milliy tarbiya nazariyasi va ma'naviyat



darsliklarida o'rganilmoqda. Axmad Yugnakiyning ushbu asari nafaqat adabiy meros sifatida balki, ilmiy- pedagogik jihatdan ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda yoshlar ushbu asarning mazmun- mohiyatini o'rganibgina qolmay, undagi pand-nasihatlarini hayotga tadbiiq etishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Asarda keltirilgan har bir voqelik, har bir fazilat, har bir shaxs biz uchun namuna bo'la oladi. Yugnakiy insoniyatni ilimga chanqoqlik, halollik, axloqiy poklik va adolatli fikr yurutuvchi shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini ta'kidlab, ma'rifat orqali ma'naviyatni mustahkamlashga undovchi omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бертельс Э.Э. (1965). Суфизм и суфийская литература. Москва. - С. 203–210.
2. DeWeese D. (1999). Islamization and Native Religion in the Golden Horde. Pennsylvania. – pp. 145–150.
3. Каримов Н. (2010). Ўзбек мумтоз адабиёти. Тошкент. – pp. 55–60.
4. Komilov N. (1996). Tasavvuf va ma'naviyat. Toshkent. – pp. 101–110.
5. Maxmudov Q. (1971). Axmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”. Toshkent. – pp. 25–70.
6. Maxmudov Q. (1971). Axmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”. II-qism. Toshkent. – pp. 12–48.
7. Maxmudxo'jayev S. (2013). Adabiyot gulshani. Toshkent: Sharq nashriyoti. – pp. 120–123.
8. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
9. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
10. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
11. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDA “YOLG ‘ON SO ‘ZLASH VA YOLG ‘ON QASAM ICHISH” YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
12. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN



FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.

13. Ismoilova Durdoni G'ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O'RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269

14. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.

15. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.

16. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER TENGLIKNING HUQUQIY VA IJTIMOY ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 499-504.